

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/14.07.2022.B.10.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

MARDIYEVA KAMILA MARATOVNA

***Ziziphora pedicellata* Pazij et Vved DAN AJRATILGAN ENDOFIT
ZAMBURUG‘LAR IKKILAMCHI METABOLITLARINING BIOLOGIK
FAOLLIKLARINI TADQIQ ETISH**

**03.00.04 – Mikrobiologiya va virusologiya
03.00.12 – Biotexnologiya**

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundariyasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Mardiyeva Kamila Maratovna

Ziziphora pedicellata Pazij et Vved dan ajratilgan endofit zamburug‘lar
ikkilamchi metabolitlarining biologik faolliklarini tadqiq etish 3

Мардиева Камила Маратовна

Изучение биологической активности вторичных метаболитов
эндоефитных грибов, выделенных из *Ziziphora pedicellata* Pazij et Vved.. 23

Mardieva Kamila Maratovna

Study of biological activity of secondary metabolites of endophytic fungi
isolated from *Ziziphora pedicellata* Pazij et Vved 46

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 49

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/14.07.2022.B.10.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

MARDIYEVA KAMILA MARATOVNA

***Ziziphora pedicellata* Pazij et Vved DAN AJRATILGAN ENDOFIT
ZAMBURUG‘LAR IKKILAMCHI METABOLITLARINING BIOLOGIK
FAOLLIKLARINI TADQIQ ETISH**

**03.00.04 – Mikrobiologiya va virusologiya
03.00.12 – Biotexnologiya**

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/B1160. raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti va O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademik S.Y. Yunusov nomidagi O‘simlik moddalari kimyosi institutida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tiame.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:

Egamberdiyeva Dilfuza Rustamovna
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Eshboyev Farhod Bakir o‘g‘li
biologiya fanlari falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim

Rasmiy opponetlar:

Tashmuhamedova Shohista Sabirovna
biologiya fanlari doktori, professor

Karimov Husniddin Xolmamatovich
biologiya fanlari falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Bioorganik kimyo instituti**

Dissertatsiya himoyasi “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/14.07.2022.B.10.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “___” _____ kuni soat ___ dagi onlayn majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko‘chasi, 39-uy, Tel.:(+99871) 237-19-31, faks:(+99871)237-38-79; e-mail: ifar@tiame.uz)

Dissertatsiya bilan “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar institutining axborot resurs markazida taninshish mumkin (№___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko‘chasi, 39-uy, Tel.:(+99871) 237-19-31, faks:(+99871)237-38-79; e-mail: ifar@tiame.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil “___” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.K. Juliyev

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
raisi, b.f.d.

N.Sh. Azimova

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, PhD, katta ilmiy xodim

V.B. Fayziyev

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda global sogʻliqni saqlash muammolari tobora keskinlashib bormoqda. Infekzion kasalliklar, jumladan yangi viruslar va antibiotiklarga chidamli bakteriyalar har yili 13 milliondan ortiq inson hayotiga zomin boʻlmoqda. Shu bilan birga, surunkali kasalliklar saraton, yurak-qon tomir hamda neyrodegenerativ patologiyalar tarqalishi ortib bormoqda va ular insonlar oʻlimning asosiy sabablaridan biri boʻlib qolmoqda. Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti (JSST) maʼlumotlariga koʻra, onkologik kasalliklar har yili qariyb 10 million insonlarning oʻlimiga sabab boʻladi.

Hozirgi vaqtda yangi, samarali va xavfsiz dori vositalarini ishlab chiqish biotibbiyotning eng muhim vazifalaridan biri boʻlib qolmoqda. Tabiiy birikmalarga alohida eʼtibor qaratilgan boʻlib, chunki ular quyi molekulyar birikmalar asosidagi preparatlarning taxminan 63% ini tashkil qiladi. Anʼanaviy oʻsimlik manbalari faol moddalar miqdorining pastligi va resurslarning cheklanganligi sababli, istiqbolli alternativ sifatida endofitik zamburugʻlarning ikkilamchi metabolitlari koʻriladi — bu biologik faol birikmalarni yaratishda yuqori potensialga ega noyob manbadir. Biotexnologik, metabolomik va sintetik-biologik yondashuvlardan foydalanish bunday birikmalarni izlash va ajratish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Oʻzbekiston Respublikasida farmatsevtika sanoatini rivojlantirish, import oʻrnini bosuvchi va mahalliy xomashyo asosida yaratiladigan innovatsion dori vositalari hamda biologik preparatlarni ishlab chiqishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasining 4-yoʻnalishida “...farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, tibbiyot muassasalari va aholini arzon, yuqori sifatli dorilar va tibbiy buyumlar bilan taʼminlash boʻyicha muhim vazifalar belgilangan”¹ deb qayd etilgan. Ustuvor yoʻnalishlardan biri yuqori terapevtik faollikka ega va past toksikligi bilan ajralib turuvchi tabiiy biologik faol moddalarining yangi manbalarini izlashdir. Shu nuqtai nazardan, endofit zamburugʻlarining ikkilamchi metabolitlari alohida qiziqish uygʻotadi, ular keng spektrli farmakologik faollikka va yangi antibakterial, oʻsmalarga va yalligʻlanishga qarshi vositalarni ishlab chiqish uchun yuqori salohiyatga ega. Shuning uchun dorivor oʻsimliklar bilan bogʻliq endofit mikroorganizmlarni tadqiq qilish, shuningdek, xalqaro samaradorlik va xavfsizlik standartlariga javob beradigan istiqbolli tabiiy birikmalar va ularga asoslangan mahalliy ishlab chiqarilgan biofarmatsevtika vositalarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya ishi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-fevraldagi PQ-3532-sonli “Farmatsevtika tarmogʻini jadallik bilan rivojlantirish boʻyicha qoʻshimcha choralar toʻgʻrisida”gi Qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi PQ-4899-sonli “Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizlik tizimini takomillashtirish boʻyicha chora-tadbirlar majmui toʻgʻrisida”gi Qarori, shuningdek Oʻzbekiston

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PQ-4947 “Oʻzbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha harakatlar strategiyasi”/Elektron manba: <https://lex.uz/uz/docs/3107042>

Respublikasining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha 2022-yil 28-yanvardagi PF-23-sonli Prezident Farmoni hamda 2025-yil 28-yanvardagi PF-13-sonli “Farmatsevtika tarmog‘ini jadallik bilan rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning VI ustuvor yo‘nalishi “Tibbiyot va farmakologiya”ga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Endofitik mikroorganizmlar, xususan zamburug‘lar, biologik faol ikkilamchi metabolitlarning noyob manbai bo‘lib, keng spektrli farmakologik faollikka ega ekanligi ko‘p marta qayd etilgan (Singh, 2023; Zhao, 2024). Endofitik zamburug‘lar steroidlar, terpenoidlar, alkaloidlar, fenolik birikmalar, xantonlar, izokumarinlar, peptidlar va poliketidlar kabi turli kimyoviy klasslarga mansub birikmalar hosil qilishi mumkin (Li, 2023; Kumar & Verma, 2024). Bu birikmalar antimikrob, antivirus, antioksidant, antitumor, yallig‘lanishga qarshi va immunomodulyator kabi ko‘plab biologik-faol xususiyatlarga ega ekanligi qayd etilgan (Patel, 2023; Chen, 2024).

So‘nggi yillarda endofit zamburug‘lardan olingan metabolitlar va ularning farmatsevtik va biologik imkoniyatlari yanada keng e‘tirof etilmoqda. Masalan, Wang va boshqalarning 2024-yilgi tahlilga ko‘ra, so‘ggi 5 yilda endofit zamburug‘lardan 907 ta yangi tabiiy birikmalar — poliketidlar, terpenoidlar, steroidlar, alkaloidlar, peptidlar va glykozidlar — ajratilgan (Wang, 2024). Shuningdek, endofitlardan olingan bioaktiv moddalar qatorini ko‘paytirish uchun ozuqa muhitlarini optimallashtirish, epigenetik va molekulyar usullar yordamida modifikatsiya qilish keng qo‘llanilmoqda (Zhao, 2024; Li, 2023). Biroq, muhim ilmiy bo‘shliqlar mavjud. Ayniqsa, ba‘zi hosil qilingan metabolitlar inson salomatligiga zararli kabi savollar mavjud (Patel, 2023).

Mamlakatimizda bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar asosan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Mikrobiologiya va O‘simlik moddalari kimyosi institutlarida olib borilmoqda, ammo *Z. pedicellata* dan ajratilgan endofitlar kompleks tarzda o‘rganilmagan. Shu bois, *Z. pedicellata* Pazij et Vved dan ajratilgan endofit zamburug‘larning ikkilamchi metabolitlarini tadqiq etish nafaqat endofitlarning biokimyoviy potensialini kengaytiradi, balki yuqori farmakologik ahamiyatga ega yangi tabiiy birikmalarni aniqlash va samarali, xavfsiz dori vositalarini yaratish imkonini beradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy–tadqiqot muassasasining ilmiy–tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Milliy tadqiqot universiteti “TIQXMMI” huzuridagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti “Oziq-ovqat mahsulotlarining biologik tadqiqi va ekspertizasi” laboratoriyasi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademik S.Y. Yunusov nomidagi O‘simlik moddalari kimyosi instituti “Molekulyar

genetika” laboratoriyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarildi.

Tadqiqot maqsadi: *Z. pedicellata* Pazij et Vved dan ajratilgan endofit zamburug‘lar ikkilamchi metabolitlarining biologik faolligini o‘rganish, shuningdek faol zamburug‘ izolyatlarining to‘liq genom va metabolom tahlillarini o‘tkazish.

Tadqiqot vazifalari:

1. *Z. pedicellata* Pazij et Vved bilan assotsiatsiyalangan endofit zamburug‘larni ajratish va ularni molekulyar-genetik identifikatsiya qilish;

2. Ajratib olingan endofit zamburug‘lar tomonidan sintez qilinadigan ikkilamchi metabolitlarning biologik faolligini (antimikrob, saratonga qarshi va antioksidant) o‘rganish;

3. *Z. pedicellata* Pazij et Vved dan ajratib olingan endofit zamburug‘lar ekstraktlarining kimyoviy tarkibini aniqlash;

4. Eng faol shtammlarning to‘liq genom sekvensini amalga oshirish, jumladan genomni yig‘ish va uning funksional annotatsiyasini amalga oshirish;

5. Tanlab olingan shtammlarda ikkilamchi metabolitlar sinteziga javob beruchi biosintetik gen klasterlarini antiSMASH dasturi yordamida tahlil qilish;

6. Ajratib olingan endofit zamburug‘laridan foydalanilgan holda kojik kislotasi biosintezining laboratoriya sharoitida optimallashtirish;

Tadqiqot obyekti: O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘sadigan dorivor o‘simlik *Z. pedicellata* Pazij et Vved dan ajratib olingan endofit zamburug‘lar.

Tadqiqot predmeti: *Z. pedicellata* Pazij et Vved dan ajratib olingan endofit zamburug‘larning ikkilamchi metabolitlarining biologik faolliqi, kimyoviy tarkibi va genetik xususiyatlari.

Tadqiqot usullari: Tadqiqotda mikrobiologik usullar (endofit zamburug‘larni ajratish, agar diffuziya usuli, zamburug‘lar genom tahlili), biotexnologiya usullari (ikkilamchi metabolitlarni ajratish va tozalash, spektrofotometrik va xromatografik tahlil), shuningdek molekulyar biologiya usullari (DNK ekstraksiyasi, ITS-mintaqasini PCR usuli bilan amplifikatsiya qilish, sekvenslash va nukleotid ketma-ketliklarini bioinformatik tahlil qilish) qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

1. Ilk bor O‘zbekiston hududida o‘suvchi *Z. pedicellata* Pazij et Vved dorivor o‘simligidan endofit zamburug‘lar ajratib olindi va molekulyar identifikatsiya qilindi;

2. Ajratib olingan endofit zamburug‘lar tomonidan biosintez qilingan ikkilamchi metabolitlarning antimikrob, sitotoksik va antioksidant faolliqi aniqlandi;

3. *Z. pedicellata* Pazij et Vved bilan assotsiatsiyalangan endofit zamburug‘lar ekstraktlarining kimyoviy tarkibi xromatografik va spektrofotometrik tahlil usullari yordamida ilk bor o‘rganildi;

4. Ilk bor faol endofit zamburug‘ izolyat *A. aflatoxiformans* S13 ning to‘liq genom sekvensi va funksional annotatsiyasi amalga oshirildi;

5. Birinchi marta AntiSMASH tahlili yordamida *A. aflatoxiformans* S13

endofit zamburug'ining ikkilamchi metabolitlar sinteziga javobgar bo'lgan 84 ta gen klasterini o'z ichiga oluvchi yuqori biosintetik salohiyati aniqlandi;

6. *A. aflatoxiformans* S13 va *R. arrhizus* S8.2 endofit zamburug'laridan foydalangan holda kojik kislotasini biotexnologik yo'l bilan olishning laboratoriya sharoitlari ishlab chiqildi va optimallashtirildi;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqot natijalari yuqori biosintez salohiyatiga ega bo'lgan va farmakologik faol birikmalar olish uchun istiqbolli endofit zamburug'larni aniqlash imkonini berdi. Ajratib olingan shtammlar — *A. aflatoxiformans* S13 va *R. arrhizus* S8.2 asosida kojik kislotasi biosintezining laboratoriya sharoitlari optimallashtirilgan bo'lib, bu jarayonni keyinchalik kengaytirish va preparatni sanoat miqyosida ishlab chiqarish uchun zamin yaratadi.

Eng faol shtamm — *A. aflatoxiformans* S13 ning to'liq genom sekvensi va uning biosintez gen klasterlari tahlili yangi ikkilamchi metabolitlar olish maqsadida yo'naltirilgan bioinjeneriya va metabolom tadqiqotlarini amalga oshirish imkoniyatlarini ochadi. Tadqiq etilgan endofitlarning genetik va kimyoviy xususiyatlarini o'z ichiga olgan holda yaratilgan ma'lumotlar bazasi tabiiy birikmalar asosida yangi biotexnologik preparatlarni ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

Shuningdek, ishlab chiqilgan yondashuvlar va usullar O'zbekiston hududidagi boshqa dorivor o'simliklar endofit mikroorganizmlarini tadqiq qilishda qo'llanilishi mumkin. Bu mamlakatimizda biotexnologiya sohasini rivojlantirish va import o'rnini bosuvchi biologik faol moddalarni yaratishga hissa qo'shadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ushbu tadqiqot zamonaviy biotexnologiya, molekulyar biologiya, mikrobiologiya, bioinformatika va kimyoviy tahlil usullaridan foydalangan holda amalga oshirilgan. Endofit zamburug'larning identifikatsiyasi DNKning ITS-mintaqalari bo'yicha o'tkazilgan bo'lib, bu taksonomik mansublikni aniq identifikatsiyasini kafolatlaydi. Ikkilamchi metabolitlarning biologik faolligi standartlashtirilgan usullar bilan baholangan (antimikrob, antioksidant, saratonga qarshi faollik), tajribalar takrorlanuvchiligi va nazorat namunalar ma'lumotlarning reprezentativligini ta'minlaydi. Genom va metabolom ma'lumotlarning ishonchliligi antiSMASH, KEGG, COG, GO dasturlaridan foydalangan holda amalga oshirilgan, shuningdek, zamburug' ekstraktlarining kimyoviy tarkibi YuSSX, LC-MS/MS, GC-MS va rentgenostruktura tahlili (X-ray) usullari bilan o'rganilgan bo'lib, bu natijalar aniqligi va takrorlanuvchiligini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishning ilmiy ahamiyati *Z. pedicellata* Pazij et Vved bilan assotsiyalashgan endofit zamburug'larni kompleks o'rganishda, jumladan ularning molekulyar identifikatsiyasi, ikkilamchi metabolitlarning kimyoviy tarkibi, to'liq genom sekvensi va genomlarning bioinformatik tahlilini o'rganishda namoyon bo'ladi. Olingan ma'lumotlar endofit zamburug'larning biosintez salohiyati va ularning antimikrob, antioksidant va antiproliferativ faollikka ega biologik faol birikmalarni sintez qilish qobiliyati haqida tushunchalarni kengaytiradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati *A. aflatoxiformans* S13 va *R. arrhizus* S8.2 endofit zamburug'laridan foydalangan holda kojik kislota olishning laboratoriya texnologiyasini ishlab chiqishda namoyon bo'ladi, bu esa uning keyingi biotexnologik ishlab chiqarilishiga asos yaratadi. Natijalar endofit zamburug'lardan dorivor o'simliklarning yangi biologik faol moddalarini qidirish va optimallashtirishda qo'llanilishi mumkin, shuningdek, mahalliy farmatsevtika sanoatining rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. *Z. pedicellata* Pazij et Vved o'simligidan ajratilgan endofit zamburug'larning molekulyar identifikatsiyasi va biologik faolligi bo'yicha olingan natijalar asosida:

Z. pedicellata Pazij et Vved o'simligidan ajratilgan endofit zamburug'larning etil atsetat ekstraktlari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'simlik moddalari kimyosi institutida "Tabiiy va sintetik birikmalarning biologik faolligini *in vitro* o'rganish. Oqsil injenerligi. Rekombinant oqsillarni tayyorlash. Ijtimoiy abamiyatga ega bo'lgan va boshqa turdagi kasalliklar diagnostikasi uchun aniq molekulyar-genetik markyorlarni ishlab chiqish" mavzusidagi fundamental tadqiqotlarda qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ma'lumotnomasi № 4/1255-3004, 2025-yil 27-noyabr). Natijada, mazkur ekstraktlar *Bacillus subtilis*, *Staphylococcus aureus* va *Pseudomonas aeruginosa* ga nisbatan kuchli antibakterial faollik, shuningdek, HeLa, HEp-2, HBL-100 va CCRF-CEM saraton hujayra liniyalariga nisbatan sitotoksik faollik namoyon qilgan; ajratilgan shtammlarning DNK ketma-ketliklari xalqaro NCBI ma'lumotlar bazasida ro'yxatdan o'tkazilgan: *R. arrhizus* (PX396432), *A. doliconidium* (OR435582), *P. africana* (OR435585), *A. alternata* (OR435586) va *A. aflatoxiformans* (PX396498). GenBank bazasida ketma-ketliklarning ro'yxatdan o'tkazilishi xalqaro ma'lumotlar bazasini boyitdi va ularning endofit zamburug'lar bo'yicha keyingi ilmiy tadqiqotlar hamda biotexnologik ishlanmalarda foydalanish imkonini yaratdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish, shulardan 5 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vaziligi xuzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosalar, adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyligi, maqsad va vazifalari asoslab berilgan, tadqiqotning obyekt va predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor

yo‘nalishlariga muvofiqligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Endofit zamburug‘lardan ajratib olingan ikkilamchi metabolitlarning biologik faolligini tadqiq etish va zamonaviy OMIKS-texnologiyalardan foydalanish istiqbollari**» deb nomlangan birinchi bobida endofit zamburug‘lar ikkilamchi metabolitlarining biologik faolligiga bag‘ishlangan mahalliy va xorijiy adabiyot ma‘lumotlarining kengaytirilgan sharhi taqdim etilgan. Bundan tashqari, ularni tadqiq qilishda qo‘llaniladigan OMIKS-texnologiyalarning zamonaviy usullari va yondashuvlari batafsil ko‘rib chiqilgan.


Dissertatsiyaning “**Tadqiqot materiallari va usullari**” deb nomlangan ikkinchi bobida eksperimental qism taqdim etilgan bo‘lib, unda foydalanilgan reaktivlarning tavsifi keltirilgan, endofit zamburug‘lar ikkilamchi metabolitlarining biologik faolligini o‘rganish usullari bayon etilgan, shuningdek, faol izolyatlarning genom va metabolom tahlilini o‘tkazishga bo‘lgan yondashuvlar yoritilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Endofit zamburug‘lar ikkilamchi metabolitlarining biologik faolligini o‘rganish, shuningdek, faol endofit izolyatlarning genom va metabolom tahlilini o‘tkazish**”ga bag‘ishlangan. Ushbu bobda *Z. pedicellata* Pazij et Vved. dan olingan endofit zamburug‘larni ajratib olish va identifikatsiya qilish natijalari, shuningdek, ularning ikkilamchi metabolitlarining antimikrob va sitotoksik faolligi tadqiqotlari taqdim etilgan. Bundan tashqari, eng faol zamburug‘ izolyatining to‘liq genom tahlili va metabolom tahlili o‘tkazilgan.

AA. *pedicellata* Pazij et Vved. dan endofit zamburug‘larni ajratish va identifikatsiya qilish. Tadqiqotda *Z. pedicellata* Pazij et Vved o‘simligidan 24 ta zamburug‘ izolyati ajratib olindi. Eng yuqori antibakterial faollik namoyon qilgan izolyatlarni aniq taksonomik identifikatsiya qilish maqsadida, zamburug‘lar taksonomiyasi uchun universal molekulyar marker hisoblangan ribosomal DNKning ichki transkripsiya qilinuvchi speyserlari (ITS4 va ITS5 uchastkalari) amplifikatsiyasi va sekvensi o‘tkazildi; barcha olingan nukleotid ketma-ketliklari GenBank bazasida ro‘yxatdan o‘tkazildi. NCBI bazasida BLAST-qidiruv natijalariga ko‘ra, 8.2, 8.3, 8.5, 8.6 va S.13 izolyatlari mos ravishda *Rhizopus arrhizus* (PX396432), *Alternaria doliconidium* (OR435582), *Preussia africana* (OR435585), *Alternaria alternata* (OR435586) va *Aspergillus aflatoxiformans* (PX396498) sifatida identifikatsiya qilindi. Barcha faol izolyatlar *Ascomycota* bo‘limiga mansub, *Mucoromycota* ga tegishli bo‘lgan *R. arrhizus* bundan mustasno. Filogenetik daraxt sekvins natijasida olingan ITS ketma-ketliklari va ularga GenBankdagi eng yaqin besh gomologlar asosida MEGA 12 dasturi yordamida qurildi (1-rasm).

Ajratilgan izolyatlarning makro- va mikromorfologik belgilarini molekulyar identifikatsiya natijalari bilan mos kelishi aniqlandi. *R. arrhizus* 8.2 koloniyalari agarli muhitlarda tez o‘sadigan, mitseliylari paxtasimon tuzilishga ega bo‘lib, dastlab oq rangda, keyinchalik esa kulrang-krem rangiga o‘tadi; mikroskop ostida

keng koenotsitik gifa, tugunlarga ega stolonlar, ulardan chiqadigan rizoidlar to'plami, uzun sporangiesimon tashuvchilar va ular uchida joylashgan sharsimon sporangiyalar, shuningdek o'ziga xos bo'lgan soyabon-simon kolumellalar hamda ko'plab silliq sporangioporalarning mavjudligi kuzatildi (2a-rasm).



1-rasm. MEGA 12 dasturida Neighbor-Joining usuli bilan *Z. pedicellata* Pazij et Vved. dan olingan 8.2, 8.3, 8.5, 8.6 va S.13 izolyatlarining ITS-ketma-ketliklari asosida qurilgan filogenetik daraxt.

A. aflatoxiformans S13 PDA muhitida tez o'sadigan, zich, dastlab oq paxtasimon mitseliyga ega bo'lib, vaqt o'tishi bilan markaziy qismida krem-sariq tusiga kiradi; mikroskopik kuzatuvlarda silliq konidiy tashuvchilar, sharsimon vezikulalar, asosan bir qatorli fialidalar hamda ko'plab mayda sharsimon yoki yarim-sharsimon, och sariq-yashil rangli konidiylar aniqlandi (2b-rasm). Mazkur makro- va mikromorfologik belgilar majmui ushbu turlarga oid adabiyotlarda keltirilgan tavsiflarga to'liq mos keladi va molekulyar identifikatsiya natijalarining ishonchligini tasdiqlaydi.



a. *R. arrhizus* 8.2

b. *A. aflatoxiformans* S13

2-rasm. *Z. pedicellata* Pazij et Vved o'simligidan ajratilgan endofit zamburug'lar koloniyalarining KDA muhitida o'stirilganda kuzatilgan makro- va mikromorfologiyasi.

Endofit zamburug'lar ekstraktlarining antimikrob faolligi. *Z. pedicellata* Pazij et Vved o'simligidan ajratib olingan endofit zamburug'lar ekstraktlarining antimikrob xususiyatlari beshta shartli patogen mikroorganizmga nisbatan o'rganildi. 8.2, 8.3, 8.5, 8.6 va S.13 izolyatlarining ekstraktlari test qilingan

mikroorganizmlarga qarshi yaqqol antibakterial faollikni namoyon etib, turli diametrdagi ingibirlash zonalarini hosil qildi (1-jadval).

R. arrhizus 8.2 ekstraktlari o'rtacha, biroq keng ta'sir doirasiga ega antimikrob faollik ko'rsatdi; ingibirlash zonalarini 12.05 ± 0.15 mm dan 18.3 ± 0.2 mm gacha bo'ldi. Keyinchalik ekstrakt silikagel kolonkasidan foydalanilgan holda qutiblilik darajasiga ko'ra fraksiyalarga ajratildi. Birinchi, qutibsiz n-geksan fraksiyasi antimikrob faollikni namoyon etmadi. Xloroform fraksiyasi barcha fraksiyalar ichida eng yuqori faollikni ko'rsatib, ingibirlash zonalarini 20.5 ± 0.3 mm – 37.75 ± 0.25 mm diapazonda bo'ldi. Etilatsetat (EtOAc) fraksiyasi ham sezilarli antimikrob faollikni namoyish etdi (12.44 ± 0.16 mm – 20.4 ± 0.15 mm). Shu bilan birga, metanol ekstrakti faqat *P. aeruginosa* ga nisbatan faollik ko'rsatib, 11.78 ± 0.45 mm ingibirlash zonasini hosil qildi. *A. doliconidium* ekstraktlari *B. subtilis*, *S. aureus* va *P. aeruginosa* ga nisbatan yuqori antibakterial faollikni ko'rsatdi; ularning ingibirlash zonalarini mos ravishda 17.36 ± 0.18 mm, 20.6 ± 0.15 mm va 24.4 ± 0.36 mm ni tashkil etdi, biroq *E. coli* va *C. albicans* ga qarshi faollik kuzatilmadi. *P. africana* va *A. alternata* ekstraktlari o'xshash natijalarni ko'rsatdi: *B. subtilis*, *S. aureus* va *P. aeruginosa* ga nisbatan aniq antibakterial faollik, ammo *E. coli* va *C. albicans* ga qarshi ta'sir yo'qligi qayd etildi. *A. aflatoxiformans* ekstraktlari esa keng ta'sir doirasiga ega bo'lib, besh turning barchasiga nisbatan faollikni ko'rsatdi. Ingibirlash zonalarini 10.00 ± 0.2 mm dan 13.26 ± 0.15 mm gacha bo'ldi.

1-jadval

Endofit zamburug'lar etilatsetat ekstraktlarining antimikrob faolligi

Zamburug' izolyatlari	Ingibirlash zonasi (mm, o'rtacha ± SE, n = 3)				
	Grammusbat bakteriyalar		Grammanfiy bakteriyalar		Achitqilar
	<i>B. subtilis</i>	<i>S. aureus</i>	<i>E. coli</i>	<i>P. aeruginosa</i>	<i>C. albicans</i>
<i>R. arrhizus</i>	17.25±0.4	18.3±0.2	16.1±0.15	14.00±0.12	12.05±0.15
<i>R. arrhizus</i> (n-geksan)	nofaol	nofaol	nofaol	nofaol	nofaol
<i>R. arrhizus</i> (xloroform)	35.5±0.40	35.25±0.04	32.1±0.2	37.75±0.25	20.5±0.3
<i>R. arrhizus</i> (EtOAc)	20.2±0.26	20.4±0.15	15.5±0.44	24.85±0.3	12.44±0.16
<i>R. arrhizus</i> (metanol)	nofaol	nofaol	nofaol	11.78±0.45	nofaol
<i>A. doliconidium</i>	17.36±0.18	20.6±0.15	nofaol	24.4±0.36	nofaol
<i>P. africana</i>	15.43±0.20	17.5±0.23	nofaol	18.53±0.29	nofaol
<i>A. alternata</i>	18.46±0.21	17.45±0.20	nofaol	21.23±0.14	nofaol
<i>A. aflatoxiformans</i>	12.33±0.17	13.26±0.15	10.00±0.2	12.7±0.27	12.17±0.44
Ampitsillin/sulbaktam	27.4 ±0.1	28.5±0.25	Test qilinmadi	Test qilinmadi	Test qilinmadi
Gentamitsin	Test qilinmadi	Test qilinmadi	26.1±0.15	27.51±0.15	Test qilinmadi
Flukonazol	Test qilinmadi	Test qilinmadi	Test qilinmadi	Test qilinmadi	28.33±0.33

Shuni ta'kidlash kerakki, faollik ko'rsatmagan yoki juda zaif faollikni namoyon etgan ekstraktlar jadvalda keltirilmagan. Ushbu tadqiqot natijalari *Z. pedicellata* o'simligidan ajratib olingan endofitik zamburug'larning yangi antimikrob birikmalar manbai sifatidagi katta salohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.


Ikkilamchi metabolitlarning sitotoksik faolligi. Zamburug‘ izolyatlaridan olingan ikkilamchi metabolitlarning sitotoksik faolligi yangi o‘smaga qarshi moddalarni dastlabki baholashda keng qo‘llaniladigan to‘rtta standart saraton hujayra liniyasidan foydalanilgan holda baholandi (2-jadval). Olingan natijalarga ko‘ra, *A. doliconidium* ekstrakti sinovdan o‘tkazilgan barcha hujayra liniyalariga nisbatan sezilarli sitotoksik faollik namoyon etmadi. *P. africana* ikkilamchi metabolitlari HeLa, HEp-2 va HBL-100 hujayralariga qarshi sitotoksik faollik ko‘rsatib, ularning o‘shini mos ravishda 59,0%, 12,0% va 20,0% ga ingibirladi. *A. alternata* ekstrakti barcha tadqiq qilingan hujayra liniyalarida kuchsiz faollik namoyon etdi, hujayra o‘shini 19,5% dan 38,0% gacha ingibirladi. *R. arrhizus* va *A. aflatoxiformans* ekstraktlari sinovdan o‘tkazilgan hujayra liniyalariga nisbatan faollik ko‘rsatmadi. Shuni ta’kidlash kerakki, barcha o‘rganilgan ekstraktlarning faolligi nazorat preparati sisplatin bilan solishtirganda pastroq bo‘ldi.

1-jadval

Ajratib olingan endofit zamburug‘lar ikkilamchi metabolitlarining sitotoksik faolligi

Ekstraktlar	Hujayra liniyalari	Hujayralar o‘shini bostirish, %			
		HeLa	HEp-2	HBL-100	CCRF-CEM
<i>R. arrhizus</i>		0.0±0.0	0.0±0.0	0.0±0.0	0.0±0.0
<i>A. doliconidium</i>		0.0±0.0	0.0±0.0	3.7±0.9	4.0±1.5
<i>P. africana</i>		59.0±2.4	12.0±1.7	20.0±2.1	0.0±0.0
<i>A. alternata</i>		27.3±1.4	20.1±1.4	19.5±1.3	38.0±2.3
<i>A. aflatoxiformans</i>		0.0±0.0	0.0±0.0	0.0±0.0	0.0±0.0
Sisplatin		99.8±3.2	74.2±2.4	84.9±3.0	98.2±2.8


***pedicellata* Pazij et Vved dan izolatsiya qilingan endofit zamburug‘lar ekstraktlarining kimyoviy tarkibini o‘rganish.** Ish jarayonida faqat biologik faollikka emas, balki olingan ekstraktlar miqdoriga ham alohida e’tibor qaratildi, chunki individual faol moddalarni ajratib olish uchun yetarli miqdorda ekstrakt talab etiladi. *R. arrhizus* 8.2 va *A. aflatoxiformans* S13 ning kultural suyuqligi etil atsetat yordamida ekstraksiya qilinishi natijasida shisha flokonning ichki devorlarida sezilarli miqdorda kristall cho‘kma hosil bo‘ldi. Asosiy kristall birikmani aniqlash maqsadida kristallar ketma-ket organik erituvchilar bilan yuvilgan holda rekristallizatsiya usuli bilan tozalandi. Monokristallarning rentgenostrukturaviy tahlili natijasida ajratib olingan birikma kojik kislotasi ekanligi aniqlandi (3-rasm).



2-rasm. *R. arrhizus* S8.2 va *A. aflatoxiformans* S13 dan ajratib olingan kojik kislotasining kimyoviy tuzilishi.

Toza mahsulot unimdorligi *R. arrhizus* 8.2 uchun 1 litr kultural suyuqlikka 6,0 g, *A. aflatoxiformans* S13 uchun esa 8,0 g ni tashkil qildi. Har ikki shtamndan ajratilgan kojik kislotasining tozaligi YSSX usuli bilan aniqlandi (4-rasm). Xromatografik tahlil natijalari ajratilgan kojik kislotasining yuqori darajada toza

ekanligini (99,9 %) ko'rsatdi ya'ni aralashmalar mavjudligiga ishora qiluvchi qo'shimcha piklar aniqlanmadi. Bunday ko'rsatkichlar har ikki shtammning yuqori mahsuldorligi va keyingi tozalashning oddiyligi tufayli kojik kislotasini biotexnologik yo'l bilan olish uchun yuqori salohiyatini namoyon etadi.



4-rasm. *R. arrhizus* S8.2 va *A. aflatoxiformans* S13 dan ajratilgan kojik kislotasining YSSX-tahlili.

Xromatografik tahlil natijalari ajratilgan kojik kislotasining yuqori darajada toza ekanligini (99,9 %) ko'rsatdi ya'ni aralashmalar mavjudligiga ishora qiluvchi qo'shimcha piklar aniqlanmadi. Bunday ko'rsatkichlar har ikki shtammning yuqori mahsuldorligi va keyingi tozalashning oddiyligi tufayli kojik kislotasini biotexnologik yo'l bilan olish uchun yuqori salohiyatini namoyon etadi.

3-jadval

***R. arrhizus* 8.2 EtOAc ekstraktining kimyoviy tarkibi**

№	Birikmalar	Sinf	Ma'lum birikmalarning kimyoviy strukturalari
1	Okratoksin A	Kumarinlar	
2	Oksipeutsedanin metanolat	Kumarinlar	
3	Atropin metilbromid	Aniqlanmagan	
4	Gordenin	Tirozin alkaloidlari	
5	Fen-S23:1	Yog' kislotalari	
6	5-Okso-6E,8Z,11Z,14Z-eikozatetraenovaya kislota	Yog' kislotalari	
7	5-Alliloksipsoralen (5-Allyloxypsoalen)	Kumarinlar	
8	Geraklenin	Kumarinlar	

9	Salitsin	Fenol kislotalar	
10	4-hydroxy-1-methoxy-6,6,9a-trimethyl-4,5,5a,7,8,9-hexahydro-1H-benzo[e][2]benzofuran-3-one	Seskviterpenoidlar	
11	Ometoat	Aniqlanmagan	
12	Fenamifos	Alkaloidlar	
13	3-Asetil-2-(4-xlorfenil)-4-gidroksi-1-(2-indol-3-il etil)-5-okso-3-pirolin	Alkaloidlar	
14	3,4-Digidroksi-beta-fenilpropion kislota	Fenilpropanoidlar	
15	(3Z)-3-[[1,6-dimetil-2-[(1E,3E)-penta-1,3-dienil]-4a,5,6,7,8,8a-geksahidro-2H-naftalin-1-il]-gidroksimetiliden]-5-(1-gidroksi-etil)pirolidin-2,4-dion	Siklik poliketidlar	

Bundan tashqari, biologik faollik ko'rsatgan zamburug' izolatlarini ekstraktlarining kimyoviy tarkibi gaz xromatografiyasi-mass-spektrometriya (GC-MS) usuli yordamida tahlil qilindi. *A. doliconidium*, *P. africana* va *A. alternata* izolatlaridan olingan etilatsetat ekstraktlarining kimyoviy tarkibi GC-MS yordamida o'rganildi va mos ravishda 30, 23 va 44 ta birikma aniqlandi (4-6-jadval). Ushbu natijalar zamburug' ekstraktlarining tarkibida turli biologik faol birikmalar, sterollar, yog' kislotalari va fenol hosilalari mavjudligini hamda ularning birgalikda biologik ta'sirni shakllantirishini ko'rsatdi.

4-jadval

A. doliconidium EtOAc ekstraktining kimyoviy tarkibi

No	Birikmalar	Ushlash vaqti (RT, min)	%
1	Propanitril	2.292	1.94
2	Indol	13.222	3.77
3	2,2,4-Trimetil-1,3-pentandiol diizobutirat	16.998	6.95
4	(5-Nitrogeks-1-enil)benzol	17.324	0.86
5	Tirozol, asetat	19.853	2.77
6	n-Geksadekan kislota	20.839	2.35
7	3,4-Bis(metil)oxolin	21.272	0.84
8	2-Fenil-2-nonenol	21.823	1.35
9	9,12-Oktadekadien kislota (Z,Z)-	22.524	2.44
10	2,5-Piperazindion, 3-(fenilmetil)-	23.077	2.15
11	(E)-3-Fenil-2-geptenitril	23.208	1.70
12	2-(1-Piperidino)-5-nitropiridin	23.809	1.61
13	1,6-Dimetil-3,4-(5'-metilbenzo)-2-oksabitsiklo(4.1.0)gept-3-en-5-on	23.949	1.54
14	2-Fenil-2,4-oktadienol	24.015	1.07

15	(3S,9aS)-3-Benzil-2,3,4,6,7,8,9,9a-oktagidropirido[1,2-a]pirazin-1-on	24.839	2.93
16	(2-Metil-2-fenilsiklogeksil)sirka kislota, (trans)-	25.113	1.70
17	siklogeksan, 1,3,5-trifenil-	25.331	0.40
18	Etanon, 1-(3-indolil)-2-(4-metilfenil)-	26.409	0.22
19	1'-Fosfaspiro[tsiklopropan-1,2'-indan], 1'-mentil-	27.252	2.88
20	(1R)-1-(2,6-Dixlor-3-ftorfenil)etanol, metil efiri	27.447	1.03
21	1H-Izoindol-1,3(2H)-dion, 2-butil-4,5,6,7-tetragidro-	27.732	0.82
22	1-(3-Xlorfenil)-3-metil-1H-pirazol-5-amin	30.200	1.82
23	2-Etilakridin	30.424	1.09
24	2-Gidrazino-8-gidroksi-4-fenilxinolin	30.645	9.98
25	Ergosta-5,7,9(11),22-tetraen-3-ol, (3 β ,22E)-	34.209	4.08
26	Ergosta-7,22-dien-3-ol, (3 β ,22E)-	35.378	1.70
27	Kampesterol	35.516	4.54
28	Stigmasterol	36.307	5.86
29	Ergost-7-en-3-ol	36.756	3.26
30	Gamma-sitosterol	37.382	26.07

5-jadval

P. Africana EtOAc ekstraktining kimyoviy tarkibi

No	Birikmalar	Ushlash vaqti (RT, min)	%
1	Benzil spirt, 4-gidroksi-	15.053	6.25
2	Benzil spirt, 4-(atsetiloksi)-	15.281	1.54
3	2,2,4-Trimetil-1,3-pentandiol diizobutirat	16.996	2.42
4	6-Xromanol	17.158	1.40
5	4-(4-gidroksi-3-metoksifenil)-2-butanon	17.685	3.83
6	7-Metil-oksa-tsiklododeka-6,10-dien-2-on	18.235	2.26
7	Benzenthioil, 3-etoksi-	19.149	1.98
8	Geksadekanovaya kislota, metil efiri	20.453	0.39
9	n-Geksadekan kislota	20.852	1.73
10	Geksadekan kislota, etil efiri	21.119	0.61
11	9,12-Oktadekadien kislota, metil efiri	22.105	0.32
12	Z-11-Pentadetsen ol	22.532	0.71
13	9(E),11(E)-Kon'yugatsiyalangan linol kislota, etil efiri	22.715	1.90
14	(E)-9-Oktadetsen kislota, etil efiri	22.758	1.54
15	1-(4-Gidroksi-3-metoksifenil)dek-4-en-3-on	23.98	0.56
16	5-Gidroksi-1-(4-gidroksi-3-metoksifenil)dekan-3-on	24.824	0.39
17	1-(3-Xlorfenil)-3-metil-1H-pirazol-5-amin	25.37	1.80
18	2-(Atsetometil)-3-(metoksikarbonil)bifenilen	25.766	1.04
18	Skvalen	28.503	9.49
20	cis-Tsiklogeks-4-en-1,2-dikarbon kislota, geksilfenetil efiri	28.947	4.34
21	Ergosterol	34.953	35.40
22	Stigmasterol	36.258	3.17
23	Gamma-Sitosterol	37.342	16.89

6-jadval

A. Alternata EtOAc-ekstrakti komponentlari

No	BirikmalarUshlab turish vaqti (RT, min)	Ushlash vaqti (RT, min)	%
1	Propanitril	2.259	0.72
2	Gidrazin, 1,2-dimetil-	2.412	0.08
3	Atsetaldegid, di-sek-butil atsetal	4.672	2.72
4	2,3-Butandiol	4.861	0.49
5	Malevin anhidrid	5.974	4.56
7	2-Gidroksi-3-pentanon	6.989	1.63
8	1-Metoksi-geksan	7.129	0.98
9	5-Metil-2(3H)-furanon	7.233	5.66
10	Digidro-3-metilen-2,5-furandion	7.603	16.58
11	2-Furankarboksaldegid, 5-metil-	7.926	0.50

12	2,4-Digidroksi-2,5-dimetil-3(2H)-furan-3-on	8.148	0.76
13	Yantar anhidrid	9.004	23.72
14	1,4-Butandiamin	9.911	0.17
15	Metilentsiklopropan karbon kislotasi	10.291	1.51
16	Feniletil spirt	10.455	1.92
17	Izopropil 3-metoksipropionat	10.649	3.37
18	d-Treo-O-etiltreonin	10.727	2.47
29	1,4-Dioksan-2,5-dion, 3,6-dimetil-	11.338	1.24
20	5,5-Dimetil-2-fenil-1-pirrolin-3-on	11.382	0.76
21	Imidazol-2-karbon kislotasi, 1-metil-	12.115	0.23
22	2-Kumaranon	12.315	1.49
23	5-Gidroksimetilfurfural	12.379	1.54
24	4-Gidroksi-benziletanol	15.032	4.25
25	4-(2-Metoksietil)fenol	15.183	1.58
26	Feniletilaktat	15.381	0.92
27	1,4,7,10,13,16,19,22-Oktaoksatsiklotetrakosan-2,14-dion	15.521	0.57
28	Pentan kislotasi, 2,2,4-trimetil-3-karboksi-izopropil, izobutil efiri	16.97	3.40
29	6-Xromanol	17.129	0.27
30	Etanol, 2-[2-(2-butoksietoksi)etoksi]-	17.92	0.32
